

BOLALAR O‘YIN FOLKLORI TADQIQOTLAR MARKAZIDA**Xasanova Mohimbegim Raxmonjon qizi ¹**¹ *Qo‘qon universiteti Ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi*
miss.mohim2002@gmail.com / +998910562612, 0544189474.**MAQOLA
MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:**

Received:28.06.2025

Revised: 29.06.2025

Accepted:30.06.2025

KALIT SO‘ZLAR:*o‘yin, folklori, bolalar,
nom inson faoliyati.**Mazkur maqolada bolalar o‘yin folklori bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar xususida fikr yuritilgan. o‘yinlar bolalar folklorining tarkibiy qismi sifatida ifodalanib, bolalar folklorini kattalar tomonidan aytiladigan alla, erkalama va ovutmachochlar, olqishlardan tashqari, mazmunan o‘yin elementlariga asoslangan yalinchoqlar, hukmlagichlar, aytishuvlar, tegishmachochlar, sanamalar, tez aytishlar, chandishlar, aldanmachochlar tashkil etilishi ta’kidlangan.*

KIRISH. Dunyo tilshunosligida hozirgi vaqtda lisoniy birliklarni antroposentrik jihatdan o‘rganishga ehtiyoj ortmoqda. Shu bois bolalarni erta rivojlantirishga qaratilgan o‘yin nomlarining lingvomadaniy, lingvokognitiv xususiyatlarini aniqlash fanlar integratsiyasiga daxldor masalalarni oydinlashtirishga hamda amaliy tilshunoslikning rivojlanishiga xizmat qiladi, o‘yin nomlarining tahlili lisoniy va nutqiy vaziyat kabi omillar darajasini aniqlashga imkon beradi, ta‘lim strategiyasi sifatida olingan bolalar o‘yin nomlarini ta‘lim terminologiyasining tarkibiy qismi sifatida o‘rgatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi PQ-3955-son “Maktabgacha ta‘lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, 2019-yil 8-oktabr PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, 2019-yil 4-oktabr PQ-4479-son “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonuni qabul qilinganining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi Qarori va 2019-yil 21-oktabr PF-

5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida ham milliy qadriyatlarga e‘tibor berilgan.

“Folklor atamalarining qisqacha lug‘ati”¹⁰³da o‘yinlar bolalar folklorining tarkibiy qismi sifatida ifodalanib, bolalar folklorini kattalar tomonidan aytiladigan alla, erkalama va ovutmachochlar, olqishlardan tashqari, mazmunan o‘yin elementlariga asoslangan yalinchoqlar, hukmlagichlar, aytishuvlar, tegishmachochlar, sanamalar, tez aytishlar, chandishlar, aldanmachochlar tashkil etilishi ta’kidlanadi. T.A.Gridina bunday so‘z o‘yinlarini kichik folklor janrining onomastik o‘yinlari tarzida izohlab, muloqotda so‘zlovchilarning idrok etishi uchun maxsus motivatsion kontekstni yaratish imkoniyatini amalga oshirish qobiliyatini yuzaga chiqaruvchi imkoniyat ekanligini izohlaydi¹⁰⁴.

“Ruscha-o‘zbekcha psixologik lug‘at”da (igra) – o‘yin inson faoliyatining tarixan tarkib topgan, asosan taraqqiyotining bolalik davriga xos bo‘lgan maxsus turi sifatida beriladi. O‘yin orqali bolalar kattalarning xatti-harakati, o‘zaro turli munosabatlarini, moddiy hamda sotsial voqelikni aks ettiradilar, dunyoni biladilar, aqliy, axloqiy hamda jismoniy tomondan rivojlanishi ta’kidlanadi. S.I.Ojegovning “Толковый словарь русского языка” nomli lug‘atida o‘yin so‘zi o‘ynamoq yasama so‘z orqali hamda hosila ma’nolari bosh ma’noga tayangan holda: *o‘yin-kulgi, dam olish yoki sport musobaqasi uchun ishlatiladigan faoliyat, shaxmat va sport o‘yinlari, qimor o‘yinlari, sport musobaqalari, Olimpiya o‘yinlari, so‘z o‘yini* tushunchalari izohlanadi. Ko‘chma ma’noda esa *taqdir o‘yini, tasavvur o‘yini* kabi turg‘un birikmalar keltiriladi¹⁰⁵.

R.A.Yo‘ldoshevaning “O‘zbek xalq o‘yinlarining tarbiyaviy ahamiyati” nomli qo‘llanmasida o‘zbek xalq o‘yinlari mazmuniga ko‘ra quyidagicha tasniflanadi: dramalashgan o‘yinlar: a) hayotiy (tarixiy-hayotiy, madaniy-hayotiy, kasb-korlik – hayotiy; b) kulgili o‘yinlar; v) qo‘shiq va raqs o‘yinlari; mazmunli-rolli o‘yinlar; mazmunli-harakatli; sport o‘yinlari; ijodiy o‘yinlar kiritilgan¹⁰⁶. Tadqiqotchi bolalar o‘yinlari hamda xalq o‘yinlarining tarixan vujudga kelish sabablarini tahlil qilib, dramalashgan o‘yinlarni o‘zbek qo‘g‘irchoq teatrining negiziga aylangan qadimiy xalqning “qo‘g‘irchoq o‘ynatish” san’ati asosida paydo bo‘lgan, deya xulosa chiqaradi. O‘yin insoniyatning butun tarixi

¹⁰³ С.Рўзимбоев, Х.Рўзметов. Фольклор атамалари қисқача луғати. – Урганч, 2007. – 11-б.

¹⁰⁴ Грдина Т.А. Языковая игра: стереотип и творчество 1996. – 11-б.

¹⁰⁵ С.И.Ожегов. Толковый словарь русского языка. <https://slovarozhegova.ru/word.php?wordid=9429>

¹⁰⁶ R.A.Yo‘ldosheva. O‘zbek xalq o‘yinlarining tarbiyaviy ahamiyati.- Toshkent, 2022. -48-bet.

mobaynida diniy marosim, [sport](#), harbiy va boshqa mashqlar, shuningdek, [san'at](#), ayniqsa uning ijro shakllari bilan qo'shilib kelgan" deb tarif berilgan¹⁰⁷.

J.X.Temirova "Rus va o'zbek bolalar o'yin folklori tipologiyasi" nomli tadqiqotida rus va o'zbek bolalar o'yinlarini tipologik jihatdan, ikki til doirasida tadqiq etadi, rus va o'zbek tillaridagi o'xshash motiv va obrazlaridagi integral va differensial xususiyatlarini oydinlashtiradi, o'zbek o'yinlarini rus folkloridagi bolalar o'yinlari bilan qiyosan janr, g'oyaviy-badiiy, milliy hamda kompozitsion jihatdan tahlil qilib beradi¹⁰⁸. Tadqiqotchi J.X.Temirova bolalar o'yinlarini to'plash, ularni tadqiq etishga qiziqish XX asrning 20-yillarida dolzarblik kasb etganligini, bu jarayon, ayniqsa, rus o'yinlarini boshqa qardosh xalqlarning o'yinlari bilan uyg'unlikda o'rganish asosida avj olganligini M.S.Andreyevning Markaziy Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan qiziqarli "hakka-qarg'a" o'yinining 13 variantini topganligi hamda A.Barovkovning "O'zbek bolalar o'yinlari" asarini tahlili orqali isbotlab beradi, o'zi hamda o'zbek folklor bolalar o'yinlarini rus folklor bolalar o'yinlari bilan qiyoslab, ularni tarkibiy jihatdan o'rganadi.

Professor Y.Odilov "O'zbek milliy bolalar o'yinlarini bilasizmi?" nomli maqolasida bolalar o'yinlari virtual shaklining ommalashuvi natijasida milliy o'yinlarining yo'qolib ketayotganini ta'kidlagan holda 12 turdagi milliy o'yinlarga tarif beradi. Ko'rinadiki, o'yinlar "...xalqning teran dunyoqarashi, obrazli nigohi, idroki va tafakkuri mahsuli sifatida dunyoga kelgan"¹⁰⁹.

Tadqiqotchi H.Do'smatov o'yin nafaqat kichik yoshdagi bolalarda, balki jamiyatning har bir qatlamida, turli toifadagi insonlar o'rtasida ham o'ynalishi, o'yinning lingvomadaniy jihatlari xususida fikr yuritadi hamda lisoniy o'yin tushunchasiga izoh beradi, lisoniy o'yinni til o'yinlaridan farqlarini ko'rsatadi¹¹⁰. Shuningdek, "O'yin" termini ko'plab ilmiy sohalarda qatori pedagogika, psixologiya va fiziologiya kabi sohalarda ham namoyon bo'lishi"ni to'g'ri belgilaydi¹¹¹.

O'zbek tilshunosligida xalq o'yinlari nomlariga bag'ishlangan dastlabki tadqiqot sifatida E.Jabborovning nomzodlik dissertatsiyasi ta'kidlangan¹¹². U xalq o'yinlari nomlarining

¹⁰⁷ <https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BByin>

¹⁰⁸ Темирова Ж.Х. Рус ва ўзбек болалар фольклори типологияси: Филол.фан.б.фалс.док....дисс.автореф.- Бухоро, 2022.

¹⁰⁹ Маҳмудов Н., Худойберганаева Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Т.: Маънавият. 2013.-Б.4.

¹¹⁰ Дусматов Х. Ўзбек миллий ўйинларининг лингвостилистик тадқиқи. – Молдова: GlobeEdit, 2022. – 14 б.

¹¹¹ Дусматов Х. Ўша манба. – 76.

¹¹² Жабборов Э. Ўзбек халқ ўйинлари лексикаси (Жанубий Ўзбекистон материаллари мисолида). номз..дисс.автореф. – Тошкент, 1998. – 26 б.

motivatsiyasi, tasnifi va lugʻaviy-semantik xususiyatlarini turkiy tillar va oʻzbek shevalari miqyosida oʻrgangan. Dastlabki oʻyinlar ovchilik va dehqonchilik bilan bogʻliq ekanligi aytilgan. 1991-yilda chop etilgan “Oʻzbek tili etnografizmlarining izohli lugʻati”da esa 1300 dan ortiq oʻzbek urf-odatlar, marosimlari, milliy sport oʻyinlari va bola tarbiyasi bilan bogʻliq soʻzlar tahlil qilingan. Lugʻatda xalq oʻyinlari ham izohlanib, bir qancha oʻyin nomlariga toʻliq tushuntirishlar berilgan¹¹³. Oʻzbek marosim folklorining ingliz tilidagi tarjimalari orqali xalq turmush tarzi, oilaviy marosimlar, anʼanaviy qarashlari va eʼtiqodlari yoritilgan R. Qosimova va A. Ziyodullayevning “Etnografizmlarning oʻzbekcha-inglizcha izohli lugʻati”da 500 dan ortiq etnografizmlar izohlangan. Lugʻatda Dorbozlik, Koʻkboʻri, Uloq kabi oʻyin nomlari va ularning izohlari keltirilgan. “Quloqchoʻzma” va “Oltin qovoq” kabi oʻyin nomlari qadimiy oʻyinlardan ekanligi, “Quloqchoʻzma” soʻzi ziyofat hamda oʻyin tarzida izohlangan¹¹⁴.

Adabiyotlar roʻyxati:

1. С.Рўзимбоев, Х.Рўзметов. Фольклор атамалари қисқача луғати. – Урганч, 2007. – 11-б.
2. Гридина Т.А. Языковая игра: стереотип и творчество 1996. – 11-б.
3. Ожегов Толковый словарь русского языка.
<https://slovarozhegova.ru/word.php?wordid=9429>
4. Yoʻldosheva. Oʻzbek xalq oʻyinlarining tarbiyaviy ahamiyati.- Toshkent, 2022. -48-bet.

¹¹³ Мирзаев Н. Ўзбек тили этнографизмларининг изоҳли луғати. – Тошкент: 1991. –119 б.

¹¹⁴ Қосимова Р., Зиёдуллаев А. Этнографизмларнинг ўзбекча-инглизча изоҳли луғати. – Бухоро. 2018. –100 б.